

VOLEYBOL SPORT TURI ORQALI O‘QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH HOLATINING TAHLILI

**A.S.Yusupbayeva - CHDPU Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasи o‘qituvchisi
To‘qsonboyeva Sitora Ozod qizi-
Jisnoniy madaniyat yo‘nalishi Xotin qizlar sporti talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada voleybol o‘yini orqali o‘quvchilarning jismoniy sifatalrini rivojlantirishni takomillashtirish holati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport, tezkorlik, texnika, voleybol , ta’lim-tarbiya, taktika, jismoniy sifatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313- sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim mazmunining integratsiyasini ta’minalash, o‘quv jarayonini tubdan yaxshilash, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish vazifalari qo‘yilgan [1]. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Prezident Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minalash, umumiy o‘rta ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilangan. Bu umumiy o‘rta ta’lim tizimida har bir o‘qitiladigan fanning muayyan zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish va kelgusi hayot faoliyatida ta’lim va mehnatning uzlusizligini ta’minalash, ta’lim-tarbiya borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning jismoniy harakatlari amplitudasini takomillashtirish muammosi aniq nazariy-metodologik yondashuvlarni talab etadi.

Bizningcha, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini akmeologik yondashuv asosida tashkil etishning zaruriyati o‘quv-tarbiyaviy va boshqarish jarayonida ta’lim dasturida belgilangan zakovatli fikrlovchi, muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiluvchi va mustaqil individual rivojlanish yo‘lini rejalashtiruvchi, davlat, jamiyat oldidagi talablarga javob beruvchi, ijodkor, muloqotga kirishuvchan, bir so‘z bilan aytganda, jismoniy va ma’naviy sifatlarning mukammallik darajasiga erishgan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yilning 19 mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Mazkur tashabbuslarning ikkinchisi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmunida ta’lim sohasida yoshlarni intelektual rivojlanishi uchun sport turlarini yangidan modernizatsiyalashgan metodlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu bois maktab jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turi orqali o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini oshirishda akmeologik yondashuvning metodik jihatlarini ishlab chiqish asosida jismoniy tarbiya darslarining sifatini oshirish tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan va hukumat tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar uzuksiz ta’limda jismoniy sifatlarini rivojlangan, ijtimoiy faol, ma’naviyati etuk bo‘lgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish va yuqori malakali sportchi yoshlarni ildam tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarining voleybol sport turi asosida jismoniy sifatlarini tarbiyalash va ularga o‘rganilayotgan harakatlar majmuini puxta egallashi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni amalga oshirish, har tomonlama ularning sog‘lomligini mustahkamlash va jismoniy tayyorgarligik darajasini oshirib borish zarur. Ushbu vazifani bajarishda foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur yondashuv o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini mo’tadil rivojlanishida hamda takomillashishida istiqbolli hisoblanadi. Ushbu sabab mazkur Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Ta’lim muassasalari, jumladan, maktab jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini oshirishda o‘quv-tarbiyaviy va boshqarish jarayonida jamiyat tomonidan qo‘yilgan mustaqil fikrlovchi, muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiluvchi, muloqotga kirishuvchan shaxsini tayyorlash talabining bajarilishini qanchalik amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Bunda o‘quvchi jismoniy sifatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishida tegishli savollami yechishga amaliy yordam beradi.

Voleybol mashg‘ulotlarida o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash asosida takomillashtirish vazifasining bajarilishi ta’lim sifatining oshirishga shart- sharoit yaratadi.

Ilmiy tadqiqot ishi doirasida istiqbolli va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan, voleybol mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘quvchilar shaxsini jismoniy rivojlantirish va shakllantirish, sog‘lom fikrli yosh avlodning ushbu sport turi vositasida texnik - taktik harakatlarni samarali o‘zlashtirishlari mumkin bo‘ladi. Bu erda asosan, ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilar harakat dinamikasini statik ravishda shakllanishiga xizmat

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

qiladi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini voleybol sport turi orqali rivojlantirishda ta’lim amaliyotiga mos metod va vositalarini ishlab chiqish, uning samaradorligini ta’lim jarayonida tajribadan o‘tkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxsnинг jismoniy sifatlarini oshirishda, avvalo, murabbiy-pedagoglaming bilimdonligi muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyining o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 yilning 28 yanvar kuni mакtab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o‘rgatmayayotganligi, bu kabi kamchiliklar xalq ta’limi tizimida barcha yondashuvlarimizni tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularni mutlaqo takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi, maktablarning ham ishki, ham tashqi qiyoғasini yangilash, ta’lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha katta islohotlar boshlanishi zarurligini ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Binobarin, davlat tomonidan mакtab ta’limiga qaratilayotgan e’tibor asnosida biz kabi mutaxassislar o‘z sohamizni chuqur anglagan holda zamonaviy o‘qitish metodlarini pedagogik jarayonga tatbiq etish orqali jismonan rivojlangan, kelajakda jamiyat rivojiga hissa qo‘sha oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashimiz muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorida belgilangan talablarga ko‘ra ta’lim jarayonini takomillashtirish muhim hisoblanadi [3]. Hozirgi davrda ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish loyiҳalarini amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, bu jismoniy tarbiya sohasiga turli yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning imkoniyatlarini rivojlantirishni, o‘quv mazmunini tanlash va tuzishga ijodiy yondashuvni talab etadi.

Turli fan tarmoqlarida o‘rgangan tadqiqotchilar asosiy e’tiborini pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratib, asosan, kasbiy faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan tadqiq etishgan. Aynan O‘zbekiston sharoitida jismoniy tarbiya sohasiga maktablarda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy sifatlarini tarbiyalsh yuzasidan J.M.Shukurllayev tomonidan “Maktab o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol sport turi misolida)” borasida ilmiy tadqiqot ishi olib borilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarini akmeologik yondashuv asosida o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda, ta’lim jarayonini loyiҳalashga tayyorlashning didaktik xususiyatlari, o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda o‘quv

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishning sifat darajasini aniqlash usullari, ta’lim-tarbiya jarayonini oshirishga oid faoliyatlarini tashxislash prinsirlari, o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga oid zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajribalardan foydalanishga oid ilmiy tavsiyalar taklif etilgan .

Xulosa

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning voleybol sport turi asosida jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil qilish va ulaming o‘rganilayotgan harakatlar majmuini puxta egallashlari va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

Ta’lim va tarbiyada o‘quvchilarning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan turli ijtimoiy yoki jismoniy turmushining o‘ziga xos shakli bo‘lib, u insonlarning tabiiy va ijtimoiy borliqni maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘zgartirishidan iborat.

Voleybol mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda o‘qituvchi tomonidan tanlanadigan tamoyillarni ongli va maqsadli qabul qilishda yosh shaxsning shaxsiy fazilatlari rolini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jismoniy sifatlarni shakllantirish, o‘rganuvchi tomonidan munosib taqdim etilgan pedagogik imkoniyatlar yig‘indisining shaxs tomonidan rivojlanish intensivligi sifatida, ikkinchi tomondan, o‘quvchining o‘z jismoniy funktsiyalarini, voleybol o‘yinlari jarayonida jamoadagi ijtimoiy rolini amalga oshirishi sifatida ishlaydi.

Voleybol mashg‘ulotlarida mifik maktab o‘quvchilarini dastlabki o‘rgatish bosqichidan dars jarayonida o‘quvchining o‘zida shaxsan qaysi sifatlar talab qilinishini yaxshi bilishni va shu orqali jismoniy sifatlarini keyingi bosqichda egallashi lozim bo‘lgan mahorat yoki professionalizm cho‘qqilarini zabit etishiga yo‘naltirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, Voleybolchilar, tennischilar, futbolchilar psixofiziologik ko‘rsatkichlari solishtirilsa, voleybol mashg‘ulotlari o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini shakllantirishda o‘ziga xos qulayligi bilan ajralib turishi ma’lum bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda voleybol eng muhim sport turi ekanligini ko‘rsatadi. Voleybol mashg‘ulotlari beshta jismoniy sifatlarning bir vaqtida shakllantirilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. Yangi tahriri. 2015 yil 4 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida //O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son Farmoniga 1-Ilova.

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
4. O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti raisligida 2022 yil 28 yanvardagi Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://www.yuz.uz/uz/news/maktab>.
5. Айрапетянц Л.Р. Волейбол. Ташкент: Зар қалам, 2006. - 240 с.
6. J.M.Shukurillayev / Sport mahoratini oshirish / Darslik – Chirchiq « City of book » 2023 yil
- 7.Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Aspects of Forming Sports Motivation." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 23-30.
- 8.Ruzimatov, Islomjon. "THE SIGNIFICANCE OF METHODS DETERMINING THE DEVELOPMENT OF LEADING PHYSICAL QUALITIES IN ROADCASTS." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 4.05 (2023): 177-185.9.Erkuzievich, Islomjon Rozmatov. "THE IMPORTANCE OF THE METHODS USED IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITY OF BEHAVIOR OF INVADING ATHLETES CARRYING OUT HARD WORK." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 325-330.